

Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari yo'nalishlari

Madiyarova Nargiza Abdirim qizi

Urganch Davlat Universiteti

ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultet

Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolam Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari yo'nalishlarini o'rghanadi. Aleksandrning hayoti haqida ,uning yurishlari, egallagan hududlari ,uning qo'shini haqida So'g'd va Baqtriyaga yurishi,Hindistonga yurishi kabi masalalar ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kalit So'zlari: Filipp II, Panjob, So'g'diyona, Baqtriya, Hindiston, Gang daryosi Spetamen, Aleksandriya Esxata.

Аннотация: Александра его походах завоеванных им территориях его армии его походе на согд и бактрию В данной статье рассматриваются направления военных походов Александра Македонского. О жизни а также его нахожде на Индию-основные цели данного исследования.

Ключевые слова: Филипп II, Пенджаб, Согдиана, Бактрия, Индия, Ганг, Спетамен, Александрия Эсхата.

Annotation: This article examines the course of Alexander the Great's military campaigns. The main purpose of this study is to discuss the life of Alexander, his campaigns, territories he conquered, his army's march to Sogd and Bactria, and his march to India.

Keywords: Philip II, Punjab, Sogdiana, Bactria, India, Ganges, Spetamen, Alexandria Eschata.

Aleksandr-makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi.Makedoniya podshosi FilipII va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li.Aristoteldan ta'lim olgan,harbiy ishni otasidan o'rgangan.336-yil Fillip II fitnachilar tamonidan o'ldirilgach ,Makedoniya taxtiga o'tirgan.334-yilda Aleksandr Eronga yurish boshlaydi ;bu bosqinchilik urushi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

otasi Fillip II davridayoq boshlangan bo'lib ,uning o'limi tufayli to'xtab qolgandi.Aleksandr qo'shinida sarkardalardan Antipatr,Parmenion,Ptolomey,Lag va boshqa,sguningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi ,5 ming otliq ,yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160ta kema bo'lgan.

Aleksandr Granik (334-yil),Iss (333-yil)va Gavgamela (331-yil) janglarida Doro III qo'shinlarini yenggan.Aleksandr Eronning markaziy shaharlari -Bobil, Suza, Persapol, Ekbatana hamda Misrni egallagan.Aleksandr 329-yil Baqtriyani egallagach, satrap Bess, Oke (Ukuz, Amudaryo) dan kechib o'tib, Navtaka (Qashqadaryo vohasi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib qatl etilgan. So'ng, Aleksandr Samarqand (Marokanda) ni egallab, Sirdaryo tamon yo'l oladida, u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata (chekka Iskandariya) deb ataydi.Umuman Aleksandrning O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilik uchragan. Ushtrushonadagi yettita shahar qal'a Aleksandrga qattiq qarshilik ko'rsatgan.Bularning ichida eng kattasi -Kiropol bo'lib,Kir II uni boshqa shahar-qal'alarga nisbatan baland devor bilan o'rattirgandi.Uning ichida mahalliy aholining ko'pchilik qismi ,eng jangovor jangchilar to'plangandi.Aleksandr shahar atrofiga xandoq qazittirgan, manjaniqlar (devorteshar mashinalar)bilan devorning bir necha yeridan teshib ochib,u yerdan shaharga bostirib kirmoqchi bo'lgan.Bu urinishi natijasiz chiqqach, u harbiy hiyla ishlatib,shahar ichidan o'tgan quruq daryo o'zanlari orqali o'zining xos jangchilari o'rtasida shiddatli jang bo'lgan.Unda Aleksandr boshi va bo'yniga tosh tegib yarodar bo'lgan,bir qancha lashkarboshilari (Krater va boshqalar) kamon o'qidan shikastlangan.Makedon qo'shini katta qiyinchilik bilan shaharni egallagan.Shahar mudofaachilari (jami 15 ming) dan 8000 ga yaqini halok bo'lgan,qolgani ichk qo'rg'onga yashiringan , so'ng tashnalikdan qiyunalip taslim bo'lgan.Makedon qo'shini qolgan shaharlarni ham shu tariqa qiyinchilik bilan egallagan.

Aleksandr mahalliy xalqning jasoratidan shu qadar xavotirga tushganki , Ptolomeyning aytishicha ,u o'z jangchilariga asir olingan kishilarni bo'lib berib ,to bu mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha ularni zanjirband holda saqlashni topshirgan.Aleksandr Sug'diyonada Spitamen qo'zg'alon ko'tarib ,Marokandani

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qamal qilgani (qarang Spitamen,Spitamen qo'zg'aloni) va Tanais ortidan saklar podshosining ukasi Kartazis boshchiligidagi katta qo'shin unga yordamga yetib kelgani haqida xabardor bo'lgach, qo'zg'alonchilarga qarshi 2000 kishilik qo'shin jo'natib ,o'zi saklar tomon qo'shin tortgan (qarang Tanais daryosi bo'yidagi jang).Mazkur qo'shin tor-mor keltirilgach , Aleksandr shaxsan o'zi katta kuch bo'lib Spitamenni dasht chegarasigacha ta'qib qilib borib,ortga qaytishda 120 mimgdan ortiq tinch aholini qirib tashlaydi,ko'plab qishloq va qal'alarни vayron qoladi, ekinzor ,bog'-rog'larni payhon qildi. Aleksandr mil.avv. 329-328-yillar qishini Zariaspa (Balx,Baqtra)da o'tkazadi.Bahorda uning huzuriga xorasmiylar podshosi Farasman 1500 jangchisi bilan kelib o'zaro ittifoq tuzishni taklif qiladi . Aleksandr 328-327-yil boshida Sug'diyonadagi tog'lar ustida joylashgan qal'alardagi qo'zg'alonchilarni bo'ysundirishga juda ko'p kuch sarflaydi, ularni mag'lub qilgach,Oksiertning qizi Roxshanak (Roksana)ga uylanadi (qarang So'g'd qoyasi,Xoriye Mil. av. 327-yil yozida Aleksandr so'g'dlik Oropiyni So'g'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi Hindistonga yurish qiladida, Gidasp daryosi (Hind d. irmog'i) sohilida katta qiyinchilik bilan podsho Por qo'shini ustidan zafar qozonadi. Shu tariqa Aleksandr Panjobni egallab, Gang daryosi vodiysiga yurishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq safar va kasallik azobidan holdan toygan qo'shining ochiqdan-ochiq qarshiligidaga duch keladi. Shu bois Aleksandr Gifasis daryosi (Hind d. sharqiy irmog'i) bo'yidan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib Bobil shahrini tanlagan va shu yerda yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga yo'liqib vafot etgan. Aleksandr yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan sultanat hududi Hind da-ryosidan Dunayga qadar cho'zilgan bo'lib, u qad. dunyoning eng yirik davlati edi. Le-kin mustahkam ichki aloqalari bo'limgan bu sultanat Aleksandr vafot etgach, tezda parchalanib ketgan va uning hududida bir qancha ellistik davlatlar vujudga kelgan. Aleksandr harbiy san'at tarixida yirik sarkarda sifatida mashhurdir. Qadim zamonlardan (mil. av. 200-yil) Aleksandr haqida ko'plab rivoyat, afsona, doston va miniatyuralar yaratilgan. Ular o'rta asr adabiyotiga ham kirib kelgan.n qal'asi va boshqalar).

Xulosalar: Aleksandr Makedoniskiy turli tarix va madaniyatga ega

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xalqlarning yetakchisi bo'lgan.Ba'zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan.Zamonaviy bosqichida Aleksandrning G'arb va sharq o'rtaida ko'prik qurishga bo'lgan urinishlaridan ko'plab darslar chiqarish mumkin.Aleksandr favqulodda qobiliyatli hukmdor edi.Uning qo'l ostidagi ayrimlar xuddi Xudoga sig'ingan kabi uning oldida tiz cho'kkani.U juda yosh-33ga to'lmay vafot etgan bo'lsada , ko'plab ishlarni amalga oshirishga ulgurgan.U Fors urushida azob chekkan greklar uchun qasos olish maqsadida yurish qiladi va oradan to'rt yil o'tib,Aleksandr uzoq asrlar davomida yashab kelgan Fors imperiyasini yo'qqa chiqargan.Eramizdan oldingi 330-yili u o'zini Osiyo hukmdori deb atay boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 .Kovalev S.I.Aleksandr Makedoniskiy,L,1937;
- 2.Trever K,Aleksandr Makedoniskiy v Sogde, „Vestnik istorii” 1947.
- 3.Bertels Ye E, Roman ob Aleksandre I yego glavnie versii na Vostoke, 1948.
4. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (1992-2005)
- 5.A.Sagdullayev „O'zbekiston Tarixi” Toshkent (Taffakkur) .2016.276-280 betlar.